Paxtani mineral o‘g‘it bilan qachon oziqlantirish lozim?

// 13.03.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/paxtani-mineral-o-g-it-bilan-qachon-oziqlantirish-lozim



Ma’lumki, o‘simlik ekiladigan har bir yerning o‘z ehtiyojlari bo‘ladi. Yerga qanday elementlar yetishmayotganini yilda bir marotaba bo‘lsada, tahlil qilish zarur. Paxta fosfor va kaliy bilan taqqoslaganda ikki barobar azot iste’mol qiladi.

Agar tuproqdan tahlil olish imkoni bo‘lmasa, paxtaga azot, fosfor, kaliy (1:0,7:0,5) nisbatiga ko‘ra berilishi optimal variant hisoblanadi.

Paxtani ekishdan oldin fosfor va kaliy o‘g‘itlari beriladi. Azotli o‘g‘itlar esa, paxtaning vegetatsiya (shonalash) davrida berilishi maqsadga muvofiq. Azotli o‘g‘itlarining kech berilishi, paxtaning kech yetilib pishishiga olib keladi.

E’tibor bering: agar tuproqda fosfor yetishmasa, o‘simlik sekin rivojlanadi. Ildiz tizimi nimjonlashadi, barglarida esa qizil tomirchalar paydo bo‘ladi. Kaliy yetishmasligida esa, o‘simlik barglarida jigarrang dog‘lar paydo bo‘ladi va berilgan azotli o‘g‘itni o‘simlik to‘lig‘icha o‘zlashtira olmaydi.